

MUSTAQILLIK YILLARIDA MARKAZIY OSIYO MAMLAKATLARINING IQTISODIY HAMKORLIGI TARIXI

Eshquvatova Shodigul

*Shahrisabz davlat pedagogika instituti Ijtimoiy fanlar fakulteti 3-
bosqich talabasi*

ИСТОРИЯ ЭКОНОМИЧЕСКОГО СОТРУДНИЧЕСТВА СТРАН ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ В ГОДЫ НЕЗАВИСИМОСТИ

Эшкuvatова Шодигул

*Студентка 3 курса факультета Социальных наук
Шахрисабзского государственного педагогического института*

HISTORY OF ECONOMIC COOPERATION OF CENTRAL ASIAN COUNTRIES IN THE YEARS OF INDEPENDENCE

Eshkuvatova Shodigul

*3rd year student of the Faculty of Social Sciences of the Shakhrisabz
State Pedagogical Institute*

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekistonning Markaziy Osiyo davlatlari bilan o'zaro iqtisodiy hamkorligi tarixi yoritilgan. O'zbekistonning Markaziy Osiyo har bir mamlakati bilan savdo aylanmasining mamlakat tashqi savdo aylanmasiga ta'siri o'rganilgan. Tahlil natijalariga ko'ra, O'zbekistonning Qozog'iston, Qirg'iziston va Turkmaniston bilan tashqi savdo aloqalarini rivojlantirish istiqbolli ekani aniqlangan. Ushbu mamlakatlar bilan savdo hajmini oshirish bo'yicha maqsadli takliflar berilgan.

Kalit so'zlar: Tashqi savdo aylanmasi, iqtisodiy hamkorlik, O'zbekiston, Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston, Turkmaniston, MOIH, konvensiya, kooperatsion aloqalar.

Аннотация: В данной статье описана история взаимного экономического сотрудничества между Узбекистаном и странами Центральной Азии. Изучено влияние товарооборота Узбекистана с каждой страной Центральной Азии на внешнеторговый оборот страны. По результатам анализа определено, что развитие внешнеторговых связей Узбекистана с Казахстаном, Кыргызстаном и Туркменистаном является перспективным. Высказаны адресные предложения по увеличению объемов торговли с этими странами.

Ключевые слова: Внешнеторговый оборот, экономическое сотрудничество, Узбекистан, Казахстан, Кыргызстан, Таджикистан, Туркменистан, МИД, конвенция, кооперационные отношения. **Annotation:** This article describes the history of mutual economic cooperation between Uzbekistan and the countries of Central Asia. The impact of Uzbekistan's trade turnover with each Central Asian country on the country's foreign trade turnover has been studied. According to the results of the analysis, it was determined that the development of foreign trade relations of Uzbekistan with Kazakhstan, Kyrgyzstan and Turkmenistan is promising. Targeted proposals have been made to increase the volume of trade with these countries.

Key words: Foreign trade turnover, economic cooperation, Uzbekistan, Kazakhstan, Kyrgyzstan, Tajikistan, Turkmenistan, MOIH, convention, cooperative relations.

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION).

O'zbekiston Respublikasi birinchi prezidenti I.A.Karimov ta'kidlaganidek, "Tarixan hozirgi

O'zbekistonning hududi shunday joy bo'lganki, bu yerda ko'hna savdo yo'llari (mashhur Buyuk Ipak yo'li) tutashgan, jo'shqin tashqi aloqalar va turli



E-mail:

[shodigul.esquvatova@
mail.ru](mailto:shodigul.esquvatova@mail.ru)

Orcid: 0009-0006-8059-
1593

madaniyatlarning bir-birini o‘zaro boyitishi jarayoni kechgan hudud hisoblangan” [1]. Sovet Ittifoqining parchalanishi natijasida XX asr 90-yillari boshiga kelib Markaziy Osiyoda 5 ta mustaqil respublika tashkil topdi. Bu esa mustaqil respublikalarni o‘zaro ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, ma’naviy va boshqa ko‘plab sohalarda hamjihatlik bilan ish yuritishga undagan asosiy omillardan biri bo‘lib xizmat qildi. Ushbu siyosiy vaziyatni to‘g‘ri baholay olgan Markaziy Osiyo davlatlarining prezidentlari 1991-yilning 13-15-avgust kunlarida Toshkent shahrida ilk bor yig‘ilish o‘tkazishdi. Unda uchrashuv yakunlari xususida Axborot hamda O‘rta Osiyo va Qozog‘iston respublikalararo Maslahat kengashini tuzish to‘g‘risida bitim imzolandi. Maslahat kengashining asosiy vazifasi beshta mamlakat o‘rtasida iqtisodiy hamkorlik yaratish, bozor munosabatlariga o‘tishda mintaqa manfaatlarini himoya qiluvchi kelishilgan siyosat yuritishdan, iqtisodiyotning umumiy muammolarini hal etishga yagona yondashuvlarni ishlab chiqishdan iborat ekanligi belgilab qo‘yildi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR (ИИТЕПАТРА И МЕТОД / MATERIALS AND METHODS). Markaziy Osiyo mamlakatlarining savdo-iqtisodiy hamkorligi hudud olimlari va boshqa yirik xorijiy olimlar tomonidan ham samarali o‘rganilgan. “O‘zbekiston tarixi” Q.Usmonov, M. Sodiqov, S. Burxonova 2016-yilda nashr etilgan adabiyoti, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do‘stlik aloqalari qo‘mitasi 2021-yil arxivi kabi materiallardan ma’lumotlar to‘plandi. Maqolani yozish davomida qiyoslash, analiz, umumlashtirish, tarixiylik metod va tamoyillaridan foydalanildi.

MUHOKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ/DISCUSSION) O‘zbekiston, Qozog‘iston, Qirg‘iziston o‘rtasida Markaziy Osiyo Hamkorlik va taraqqiyot banki tashkil etildi. Shu tariqa Markaziy Osiyo Iqtisodiy hamjamiyati (MOIH) tashkil topdi. Ushbu hamjamiyatning ahamiyatli tomoni shundaki, O‘rta Osiyo davlatlari tashqi savdoda boj to‘lovlarida yuzaga keladigan o‘zaro muammolarni bartaraf etishdi. Bundan tashqari chegaralarning o‘zaro yaqin ekanligi yuklarni tashishda ortiqcha sarf-xarajatlarni keskin qiqartirish imkonini berdi. 1995-yil 9-10-yanvar kunlari Bishkekda O‘zbekiston, Qozog‘iston, Qirg‘iziston davlat boshliqlarining kengashi bo‘lib unda uch qardosh davlatlar o‘rtasida abadiy do‘stlik

haqida shartnoma imzolandi. Bu hujjatda o‘zbek, qozoq, qirg‘iz xalqlarining orzu niyatlari o‘z ifodasini topdi. Mazkur shartnoma uch qardosh davlat xalqlarining iqtisodiy, siyosiy, madaniy ilmiy-texnikaviy hamkorligini yangi asoslarda rivojlantirishga yo‘naltirildi [3]. 1997-yil 12-dekabr kuni Qozog‘iston Respublikasining yangi poytaxti-Astana shahrida O‘zbekiston, Qozog‘iston, Qirg‘iziston Prezidentlarining kengashi bo‘lib o‘tdi. Kengashda uch mamlakat o‘rtasida energetika, suv zaxiralaridan oqilona foydalanish, oziq-ovqat ta‘minoti, kommunikatsiya hamda mineral xom-ashyo zaxiralarini o‘zlashtirish va qayta ishlash sohalari bo‘yicha xalqaro konsiumlar tuzish to‘g‘risida muzokara bo‘ldi. Tojikistonda 1992-1996-yillarda davom etgan birodarkushlik urushi Tojikistonning iqtisodiy taraqqiyotiga salbiy ta‘sir ko‘rsatdi, uning qo‘shni mamlakatlar, jumladan, O‘zbekiston bilan hamkorligiga ham salbiy ta‘sir etdi. 1992-2017-yillar mobaynida O‘zbekiston va Tojikiston davlatlari o‘rtasida siyosiy aloqalarimiz biroz sustlashgan bo‘lsa-da, iqtisodiy va madaniy aloqalar jadal rivojlandi. O‘zbekistonning birinchi prezidenti I.Karimovning taklifiga binoan 1998-yil 4-yanvar kuni Tojikiston prezidenti I.Rahmonov O‘zbekistonga amaliy tashrif bilan keldi. Ikki mamlakat rahbarlari tashrif yakunlari bo‘yicha qo‘shma axborot imzoladi. O‘zbekiston va Tojikiston Bosh vazirlari sog‘liqni saqlash, madaniyat va gumanitar soha, fan, texnika va axborot sohalari bo‘yicha hamkorlik to‘g‘risida bitimlarni imzoladilar. Ikki mamlakat hukumatlari o‘rtasida yuk tashish hamda gaz yetkazib berish, Tojikistonning qarzi bo‘yicha o‘zaro hisob-kitob to‘g‘risidagi bitimlar ham imzolandi. O‘zbekiston va Tojikiston munosabatlari o‘zining yangi, mustahkamlanish va taraqqiyot davriga o‘tdi. O‘zbekiston bilan Tojikiston o‘rtasida tovar ayirboshlash hajmi 1997-yilda 50 mln AQSH dollaridan oshdi, bu avvalgi yilga nisbatan 50 % ko‘pdir. 2000-yilda O‘zbekistonda 15 ta o‘zbek – tojik qo‘shma korxonasi, Tojikistonda 3 ta tojik–o‘zbek qo‘shma korxonasi faoliyat yuritdi. 2012-yil 1-yanvar holatiga ko‘ra O‘zbekiston Respublikasi hududida Markaziy Osiyo mamlakatlari investorlari ishtirokida 219 ta korxonalar faoliyat yuritayotgan bo‘lib, ulardan 47 tasi 100 % xorijiy sarmoyadorlar hisobidan tashkil etilgan. Qolgan 172 tasi esa qo‘shma korxonalar hisobiga to‘g‘ri keladi. Shuningdek, Markaziy Osiyo mamlakatlari hududida O‘zbekiston Respublikasi investorlari ishtirokida faoliyat yuritayotgan

korxonalar soniga e'tibor qaratadigan bo'lsak Qozog'istonda 97 ta, Qirg'izistonda 34 ta, Tojikistonda 8 ta korxonalar aynan mamlakatimiz sarmoyadorlari tomonidan barpo etilgan [5].

NATIJALAR (РЕЗУЛЬТАТЫ / RESULTS). Shunisi ahamiyatliki, davlatimiz rahbari Sh.Mirziyoyev ilk xorijiy tashriflarini 2017-yilning mart oyida Markaziy Osiyo davlatlaridan boshladi: avval Turkmaniston va Qozog'iston, so'ng Qirg'iziston va Tojikistonga tashriflar amalga oshirildi. Ushbu tashriflar chog'ida biznes forumlar o'tkazilib, savdo-iqtisodiy va investitsiyaviy hamkorlik bo'yicha hukumatlararo bitimlarning salmoqli paketlari imzolandi. Bu esa O'zbekiston va Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasidagi o'zaro savdosotiq, kooperatsion aloqalarni rivojlantirishga xizmat qildi. Bundan tashqari, qo'shni davlatlarning O'zbekiston bilan chegaradosh hududlari o'rtasida to'g'ridan to'g'ri aloqalar o'rnatish va mintaqaviy iqtisodiy forumlar o'tkazish amaliyoti yo'lga qo'yildi. Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining O'zbekistonga javob tashriflari esa ko'p tomonlama hamkorlik poydevorini yanada mustahkamladi hamda iqtisodiy va investitsiyaviy hamkorlik yo'nalishlarini kengaytirdi. Qayd etish joizki, so'ngi yillarda Prezident Shavkat Mirziyoyev tashabbuslari qo'shni davlatlar rahbarlari tomonidan qo'llab – quvvatlanishi natijasida Markaziy Osiyoda siyosiy muloqot va o'zaro ishonch mustahkamlandi. Davlat rahbarlarining Maslahatlashuv uchrashuvlari yo'lga qo'yildi. Natijada mintaqadagi ikki va ko'p tomonlama hamkorlik darajasi yangi bosqichga ko'tarildi. Xususan, 2017-2019-yillar mobaynida Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan savdo aylanmasi yillik o'rtacha 50 % dan ko'proqqa o'sib, 5,2 mlrd dollarga yetgan. 2020-yil natijalariga ko'ra esa, global pandemiya sharoitiga qaramay, O'zbekistonning Markaziy Osiyo davlatlari bilan savdo aylanmasining umumiy hajmi 5 mlrd dollarni tashkil etdi [4].

Jumladan, O'zbekistonning umumiy tashqi savdo aylanmasida Markaziy Osiyo davlatlarining ulushi 2019-yildagi 12,4 % dan, 2020-yilda 13,6 % ga oshgan. O'zbekistonning mintaqadagi umumiy tashqi savdo aylanmasida esa Qozog'istonning ulushi 61 %, Qirg'izistonniki 18,2 %, Turkmanistonniki 10,6 % va Tojikistonning ulushi 10,2 % ni tashkil etdi. Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekistonning Markaziy Osiyo davlatlari bilan 2016 yildan 2019 yilgacha bo'lgan savdo aylanmasi 2 barobardan ziyod oshib,

2,5 mlrd dollardan 5,2 mlrd dollargacha o'sdi. O'sish ko'rsatkichi Qozog'iston bilan - 1,8, Qirg'iziston bilan - 5, Turkmaniston bilan - 2,7 va Tojikiston bilan - 2,4 barobarni tashkil etdi. O'zbekistonning Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan umumiy savdo aylanmasidagi ulushi hajmi ham 10,2 % dan 12,4 % ga oshdi [2].

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION). Xulosa qilib aytganda, O'zbekiston yuritayotgan ochiq va o'zaro manfaatli hamkorlik siyosati Markaziy Osiyo mamlakatlarida qo'llab-quvvatlanmoqda. Qo'shni davlatlar O'zbekistonning ishonch va yaqin qo'shnichilik muhitini yaratishga qaratilgan sa'y-harakatlarini yuqori baholab Markaziy Osiyo davlatlari mintaqani barqaror, xavfsiz, hamkorlikda gullab yashnagan makonga aylantirishga tayyor ekanliklarini izhor qilmoqda. Bu esa mintaqadagi davlatlari iqtisodiyotlarining tezkor taraqqiyotiga yordam beradi. Markaziy Osiyodagi har bir mamlakat O'zbekiston tashqi savdo aylanmasida o'ziga xos salohiyatga ega. Ushbu mamlakatlar etnik tarkibining bir-biriga o'xshashligi o'zaro savdo imkoniyatlarini oshirsa, Qozog'iston, Qirg'iziston va Tojikistonning JSTga a'zo ekanligi hamda O'zbekiston va Turkmanistonning a'zo emasligi savdo munosabatlarini murakkablashtiradi. Ushbu maqolaning maqsadi ham O'zbekiston tashqi savdo aylanmasiga Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan savdo aylanmasining ta'sirini aniqlagan holda, o'zaro hamkorlikning istiqbolli yo'nalishlari bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqishdir.

ADABIYOTLAR RO'YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES)

1. Karimov I.A. O'zbekistonning o'z istiqloq va taraqqiyot yo'li. 1-jild. –T. "O'zbekiston", 1996. 42-b.
2. Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasida savdo-iqtisodiy va investitsiyaviy hamkorlikni rivojlantirish — taraqqiyot omili // Gazeta.uz. 2021-yil 13-iyul.
3. Mustaqillik: izohli ilmiy-ommabop lug'at. – Toshkent: Sharq, 2006. – B. 211-212.
4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik aloqalari qo'mitasi joriy arxivi. 2021-yil.
5. Usmonov Q., Sodiqov M., Burxonova S. O'zbekiston tarixi. – Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2016.